

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**  
**Volume 9. September 2024**

**INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLERINI  
HIMOYA QILISHNING YURIDIK MEXANIZMLARI**

**Madrimova Guli Sanjarbekovna**

URDPI Milliy g`oya ma`naviyat asoslari va  
huquq ta`limi yo`nalishi 2-bosqich talabasi  
+998-88-603-03-02.

Gulimadrimova36@gmail.com

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni himoya qilishning yuridik mexanizmlari,inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markaz faoliyati hamda inson qadri va uning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e`lon etilgan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” haqida ma`lumotlarga ega bo`lamiz.

**Абстраксия:**

В данной статье описаны и свободы человека гражданина правовые механизмы их защиты национального центра Республики Узбекистон по правам человека и Всеобщая декларация прав человека которая оправдывает ценность человека и о его естественных и неотъемлемых и правах и свободах мы будем иметь иметь информацию.

**Kirish so`z:**

Fuqaro, huquq, yuridik mexanizm, deklaratsiya, milliy markaz, shaxsiy huquq.

**Ключие слова:**

Гражданин право правовой механизм декларация национальный центр личный закон

Insonga bekamu ko`sit yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, sohalarda o`z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta`minlovchi huquqiy maqom bu inson va fuqarolarning huquq va erkinliklaridir. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyavni tuzumining asosidir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar, qonunlarning mazmuni va qo`llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta`sir ko`rsatadi. O`zbekistonning har bir fuqarosiga uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e`tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 9. September 2024

va ijтиоy ahvolidan qat`I nazar inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini sud yo`li bilan himoya qilishnishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda o`zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o`zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o`z huquq va erkinliklarini ro`yobga chiqarishga yo`l qo`ymaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta`minlashga qaratilgan. Inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning yuridik mexanizmlari --- inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kafolatlar, institutlar, prinsiplar va tartibodlar tizimi hamda ular orasida faoliyat yurutuvchi organlar faoliyatini nazarda tutadi. Yurudik mexanizmni soda qilib aytganda, yurudik norma, qoidaning amalga oshirilish tartibi, yo`li, ususli va uslublari yig`indisi deyish mumkin. Misol tariqasida, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida “davlat hamda jamiyat yetim bolalarni shu bilan bir qatorda ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo`lgan bolalarni boqish, tarbiyalash hamda o`qitishni ta`minlaydi, bolalarga bag`ishlangan xayriya faoliyatlarini rag`batlantiradi”, -deb belgilab qo`yilgan. Mazkur normani amaliyotda ta`minlashga qaratilgan bir qator qo`shimcha normativ—huquqiy hujjatlar qabul qilingan shu jumladan ularda davlat va nodavlat tashkilotlarining huquq hamda majburiyatları belgilab qo`yilgan. Har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e`lon etilgan asosiy xalqaro hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyadir. Ushbu qonun 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan bo`lib u muqaddima va 30 moddadan iborat. Deklaratsiyada “insoniyat oilasining hamma a`zosiga xos qadr-qimmatni , ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish , erkinlik , adolat va yalpi tinchlik negizi” ekanligi e`lon etilgan. Unga ko`ra umumhurmat va rioya etishi shart bo`lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir. Deklaratsiyada inson manfaatlarining ustuvorligi quyidagi tamoyillarda o`z aksini topgan: inson huquqlarini himoya qilish, inson huquqlarining tengligi, inson erkinliklari , inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni, inson huquqlarini ta`minlashning adolatligi. Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikisi Milliy markazi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi “Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to`g`risida”gi farmoni asosida tashkil etilgan. Markaz inson huquqlari sohasidagi O`zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo`yicha davlat organlari va boshqa tashkilotning o`zaro hamkorligini, milliy ma`ruzalarini

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 9. September 2024**

tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo`yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta`minlovchi davlat organi hisoblanadi. Markaz o`z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Inson huquqlari himoyasi uchun ko`krak nishoni O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012 sonli farmoniga asosan qabul qilindi. Ko`krak nishoni bilan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi xizmati, inson huquqlarini targ`ib qilishdagi faolligi, inson huquqlari sohasidagi ta`lim, yoshlar o`rtasida inson huquqlarini himoya qilish an`analarini rivojlantirishga qo`sghan hissasi, inson huquqlarini himoya qiluvch itashkilotni rivojlantirish va boshqarishdagi salmoqli yutuqlari, inson huquqlari sohasidagi samarali ilmiy faoliyati, aholining imkoniyati cheklangan guruhlari huquqlarini himoya qilishga alohida o`rnak bo`layotgani uchun O`zbekiston Respublikasi fuqarolari taqdirlanadi. Ko`krak nishoni bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar ham taqdirlanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuridik mexanizmlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta`minlash, ularni amalda himoya qilish va davlat organlaroning faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlari yaratadi. Buning natijasida, ijtimoiy adolat, barqarorlik va inson huquqlari ta`minlanadi, bu esa zamonaviy jamiyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O`z.ME.1-jild.Toshkent.2000.
- 2.<http://inson huquqlari.uz/>.
- 3.PF-6012 son.Farmoni

**Research Science and  
Innovation House**